“Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” mavzusida davra suhbati tashkil etildi

// 05.12.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/biz-zo-ravonlikka-qarshimiz-mavzusida-davra-suhbati-tashkil-



BMT Bosh Assambleyasining 1999-yil 17-dekabrdagi rezolyutsiyasi bilan “25-noyabr – Xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish kuni” sifatida belgilangan.

Shunga ko‘ra, yurtimizda 25-noyabrdan “Zo‘ravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakat” global kampaniyasi o‘tkazilmoqda.



Kampaniya doirasida “O‘zkimyosanoat” AJda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda “Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” mavzusida davra suhbati tashkil etildi.

Tadbirda Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisi o‘rinbosari Matluba Qahhorova hamda Ijtimoiy himoya Milliy agentligi huzuridagi Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi direktori Muqaddam Rasulova yurtimizda ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va taziyiqlarga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida batafsil to‘xtalib o‘tishdi.



Xususan, so‘nggi yillarda mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash, onalar va bolalar huquqlarini muhofaza qilish yo‘nalishida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun-mohiyati xususida so‘z bordi.



Shuningdek, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, mamlakatimizda inson manfaatlari ustunligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar zamirida jamiyatda xotin-qizlar mavqeini oshirish, ularning huquqlarini himoya qilish, ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish yo‘nalishidagi ishlar tahlil qilindi.



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati